



AHOLI DAROMADLARINING HUDUDIIY TAFOVUTLARIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY OMILLARNING EMPIRIK TAHLILI

Abdunazarova Shahnoza

Termiz davlat universiteti

ORCID: 0009-0006-6418-3047

shahnoza.abdunazarova1530@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada aholi daromadlarining hududiy tafovutlariga ta'sir etuvchi asosiy iqtisodiy omillar empirik jihatdan o'rganilgan. Tadqiqotda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad, o'rtacha ish haqi, bandlik darajasi, investitsiyalar hajmi hamda sog'liq infratuzilmasi kabi ko'rsatkichlar tahlil qilinib, ularning o'zaro bog'liqligi aniqlangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, hududlarda daromadlar dinamikasiga eng kuchli ta'sir etuvchi omillar sifatida ish haqi darajasi va jalb etilgan investitsiyalar miqdori namoyon bo'lmoqda. Bandlik darajasi va sog'liq infratuzilmasi ko'rsatkichlari esa bilvosita ta'sir ko'rsatib, hududiy farovonlikning qo'shimcha omillari sifatida baholanishi mumkin. Tadqiqot xulosalari aholi daromadlarining hududiy tafovutlarini yumshatishga qaratilgan iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: aholi daromadlari, hududiy tafovutlar, iqtisodiy omillar, empirik tahlil, ish haqi, bandlik, investitsiyalar, sog'liq infratuzilmasi, statistik tahlil, ekonometrik model.

ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА РЕГИОНАЛЬНЫЕ РАЗЛИЧИЯ В ДОХОДАХ НАСЕЛЕНИЯ

Абдуназарова Шахноза

Термезский государственный университет

Аннотация. В данной статье проведён эмпирический анализ основных экономических факторов, влияющих на региональные различия в доходах населения. В исследовании рассмотрены такие показатели, как среднедушевые доходы, средняя заработная плата, уровень занятости, объём инвестиций и обеспеченность медицинской инфраструктурой. Результаты анализа показывают, что ключевыми детерминантами роста доходов населения выступают уровень заработной платы и объём привлечённых инвестиций. Показатели занятости и обеспеченности медицинскими кадрами оказывают косвенное влияние, формируя дополнительные условия для повышения регионального благосостояния. Полученные выводы имеют теоретическую и практическую значимость для разработки эффективной региональной экономической политики, направленной на сокращение различий в доходах населения.

Ключевые слова: доходы населения, региональные различия, экономические факторы, эмпирический анализ, заработная плата, занятость, инвестиции, инфраструктура здравоохранения, статистический анализ, эконометрическая модель.

EMPIRICAL ANALYSIS OF ECONOMIC FACTORS AFFECTING REGIONAL DISPARITIES IN HOUSEHOLD INCOME

Abdunazarova Shahnoza

Termiz State University

Abstract. *This article provides an empirical analysis of the key economic factors influencing regional disparities in household income. The study examines indicators such as per capita income, average wages, employment rate, investment volume, and healthcare infrastructure availability. The findings reveal that wage levels and the amount of attracted investments are the main determinants of income growth, while employment rates and healthcare resources exert indirect effects, serving as supplementary drivers of regional welfare. The results have both theoretical and practical significance for the development of regional economic policies aimed at reducing income disparities across territories.*

Keywords: *household income, regional disparities, economic factors, empirical analysis, wages, employment, investments, healthcare infrastructure, statistical analysis, econometric model.*

Kirish.

Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar aholi turmush darajasini oshirish, daromad manbalarini kengaytirish va hududlararo iqtisodiy tenglikni ta'minlashga qaratilgan. Biroq, mavjud ma'lumotlar hududlar kesimida aholi daromadlarida sezilarli tafovutlar saqlanib qolayotganini ko'rsatmoqda. Daromadlarning hududiy tafovutlari nafaqat iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga, balki ijtimoiy barqarorlik va aholining farovonlik darajasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Hududiy tafovutlarga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni ilmiy asosda tahlil qilish iqtisodiy siyosat samaradorligini baholash hamda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, o'rtacha ish haqi, bandlik darajasi, investitsiyalar hajmi va sog'liqni saqlash infratuzilmasi kabi ko'rsatkichlar aholi daromadlari shakllanishining asosiy manbalari hisoblanadi. Mazkur omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni empirik jihatdan o'rganish orqali daromadlarning hududiy tafovutlari sabablari yanada chuqurroq ochib berilishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot aholi daromadlarining hududiy tafovutlariga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillarni statistik va ekonometrik usullar yordamida tahlil qilishni maqsad qiladi. Olingan natijalar nafaqat ilmiy izlanishlar uchun, balki amaliy siyosat choralari ishlab chiqishda ham qo'llanilishi mumkin.

Adabiyotlar sharhi.

Aholi daromadlarining hududiy tafovutlari masalasi iqtisodiyot fanida uzoq yillardan beri muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiy adabiyotida daromadlar tengsizligi, uning hududlar bo'yicha farqlanishi va unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishga qaratilgan ko'plab ilmiy ishlar mavjud. Masalan, Kuznets (1955) o'zining mashhur tadqiqotida iqtisodiy o'sish bosqichlarida daromadlar tengsizligi qanday o'zgarishini tahlil qilib, "Kuznets egri chizig'i" nazariyasini ilgari surgan. Ushbu nazariya daromadlarning hududiy tafovutlari iqtisodiy rivojlanish jarayonida muayyan davrda kuchayishi, keyinchalik esa pasayishini ko'rsatadi.

Keyingi yillarda Williamson (1965) va Todaro (1980) kabi olimlar hududiy tafovutlar masalasini urbanizatsiya, migratsiya hamda investitsiyalarning taqsimlanishi bilan bog'liq holda o'rganib, hududiy daromad tafovutlari iqtisodiy siyosat samaradorligini baholashda muhim indikator ekanini asoslab berishgan. Shuningdek, Barro va Sala-i-Martin (1995) iqtisodiy o'sish nazariyalari doirasida hududlararo daromad konvergentsiyasi masalasiga

e'tibor qaratib, iqtisodiy siyosatning hududiy farqlarga ta'sirini empirik modellar orqali tahlil qilganlar.

MDH mamlakatlari va Markaziy Osiyo mintaqasida ham daromadlar tafovutlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar mavjud. Xususan, Rossiya olimlari Granberg, Leksin va Lavrovskiyar tomonidan hududiy iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy tengsizlik masalalarini tahlil qilib, daromadlar tafovutlariga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida sanoatlashuv darajasi, mehnat resurslari bandligi va davlat investitsiyalari hajmini ko'rsatganlar. O'zbekistonda esa mustaqillikdan keyin olib borilgan iqtisodiy islohotlar jarayonida aholi daromadlari va hududiy tafovutlarni kamaytirish masalalari ilmiy va amaliy jihatdan tadqiq etila boshladi. Mahalliy tadqiqotlarda Xolmo'minov, Xo'jayev va Bozorov kabi olimlar hududlar o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish farqlari asosan mehnat bozori, ishlab chiqarish hajmi va investitsiya oqimlari bilan bog'liq ekanligi ta'kidlanadi.

So'nggi yillarda iqtisodiy adabiyotlarda daromadlar hududiy tafovutlarini baholashda empirik metodlar, xususan, regressiya tahlili, panel ma'lumotlar modellaridan, logit va probit modellaridan keng foydalanilmoqda. Bu yondashuvlar daromadlardagi tafovutlarni nafaqat statistik jihatdan, balki iqtisodiy-siyosiy omillar ta'sirida shakllanayotgan murakkab jarayon sifatida o'rganish imkonini beradi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, aholi daromadlarining hududiy tafovutlari ko'plab omillar ta'sirida shakllanadi. Ularning ichida o'rtacha ish haqi, bandlik darajasi, investitsiyalar hajmi va sog'liq infratuzilmasi asosiy determinatsiya qiluvchi ko'rsatkichlar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois mazkur tadqiqotda ham aynan ushbu omillarning aholi daromadlariga ta'siri empirik modellar yordamida tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda aholi daromadlarining hududiy tafovutlariga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillar empirik jihatdan o'rganildi. Tadqiqot metodologiyasi asosan statistik ma'lumotlarning tizimli tahliliga va ekonometrik modellashtirishga asoslanadi. Bunda 2017–2024 yillarga oid rasmiy statistik ko'rsatkichlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Quyida Stata dasturidan foydalanib 2017-2024 yillar oralig'ida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad hajmiga ta'sir etuvchi omillar tahlilini ko'rib chiqamiz. Ekonometrik modellashtirish orqali xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

1-jadval

2017-2024 yillar oralig'ida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadga hajmiga ta'sir etuvchi omillar ko'rsatkichlari

Yillar	Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad (ming so'm)	O'rtacha ish haqi (ming so'm)	Bandlik darajasi (%)	Investitsiyalar hajmi (mlrd so'm)	Sog'liq infratuzilmasi
2017	6 572,5	1 107,8	93,3	3551	15,84
2018	8 351,1	1 351,6	90,5	7240,6	16,71
2019	9 799,2	1 775,6	90,7	11835,1	15,95
2020	10 384,8	2 100,2	88,9	10068,2	15,98
2021	12 386,1	2 336,7	89,2	12037,8	16,04
2022	14 127,8	2 770,8	90,7	11569,4	18,23
2023	16 538,5	3 280,4	92,6	18307,7	17,82
2024	18 670,0	3 678,5	94,1	16593,1	16,68

Manba: Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

Yuqoridagi jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak, 2017–2024 yillar oralig'ida Surxondaryo viloyatida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Xususan, 2017 yilda ushbu ko'rsatkich 6 572,5 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib 18 670,0 ming so'mga yetib, qariyb uch baravar oshdi. Bu davr mobaynida daromadlarning o'sishi asosan o'rtacha ish haqi ko'rsatkichining sezilarli darajada ortishi bilan izohlanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2017 yilda 1 107,8 ming so'mni tashkil etgan ish haqi 2024 yilda 3 678,5 ming so'mga yetib, deyarli uch yarim baravar oshgan.

Bandlik darajasi ko'rsatkichlari nisbatan beqaror bo'lib, 2017 yildagi 93,3 foizdan 2020 yilda 88,9 foizgacha pasayish kuzatilgan. Biroq keyingi yillarda ushbu ko'rsatkich asta-sekin tiklanib, 2024 yilda 94,1 foizga yetdi. Bu esa hududiy mehnat bozorida ishchi kuchi bilan ta'minlanish darajasi nisbatan yaxshilanganidan dalolat beradi.

Investitsiyalar hajmi yillik kesimda keskin o'zgarishlarga ega. 2017 yilda 3 551 mlrd so'mni tashkil etgan investitsiyalar hajmi 2023 yilda eng yuqori darajaga yetib, 18 307,7 mlrd so'mni tashkil etdi. 2024 yilda esa ushbu ko'rsatkich 16 593,1 mlrd so'mni tashkil qilib, biroz pasayish qayd etildi. Bu o'zgarishlar viloyatda iqtisodiy loyihalar, ishlab chiqarish quvvatlari va infratuzilma rivojiga jalb etilgan mablag'lar hajmi bilan bevosita bog'liqdir.

Sog'liq infratuzilmasini ifodalovchi ko'rsatkich - 10 ming aholiga to'g'ri keladigan shifokorlar soni 2017–2024 yillar davomida 15,8–18,2 oralig'ida saqlanib qoldi. Eng yuqori ko'rsatkich 2022 yilda (18,22) qayd etilgan bo'lsa-da, keyingi yillarda biroz pasayish kuzatildi. Bu esa aholining o'sish sur'atlari tibbiy kadrlar soni o'sishidan yuqoriligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Surxondaryo viloyati misolida ko'rib chiqilgan davr mobaynida aholi daromadlarining ortishi ko'proq ish haqi va investitsiyalar hajmidagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq ekanligi aniqlanadi. Shu bilan birga, bandlik darajasi va sog'liq infratuzilmasi ko'rsatkichlari hududiy iqtisodiy farovonlikka bilvosita ta'sir etuvchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu natijalar aholi daromadlarining hududiy tabaqalanishini o'rganishda hamda hududiy iqtisodiy siyosatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2-jadval

Tasviriy statistika

Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
aholi daromadi	8	12103.75	4138.702	6572.5	18670
ish haqi	8	2300198.4	903961.43	1107793.8	3678499.8
bandlik d	8	91.25	1.891	88.9	94.1
investitsiya hajmi	8	11400.362	4720.631	3551	18307.7
sog'liq inf d	8	16.655	.912	15.839	18.227

Manba: "Stata/MP 17.0" dasturida hisoblangan.

Statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2017–2024 yillar davomida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad o'rtacha 12 103,7 ming so'mni tashkil etib, minimal darajasi 6 572,5 ming so'mdan maksimal 18 670 ming so'mgacha oshgan. Bu ko'rsatkich hududiy daromadlar dinamik tarzda o'sib borayotganini anglatadi.

O'rtacha ish haqi ham sezilarli farq bilan o'zgarib, minimal qiymati 1,1 mln so'm atrofida bo'lgan bo'lsa, maksimal darajasi qariyb 3,7 mln so'mga yetgan. Bu esa ish haqi aholi daromadlari o'sishining asosiy drayverlari biri ekanini ko'rsatadi.

Bandlik darajasi o'rtacha 91,2 % ni tashkil etib, yillar kesimida katta o'zgarish kuzatilmagan, bu esa mehnat resurslaridan foydalanish nisbatan barqaror bo'lganini anglatadi.

Investitsiyalar hajmi o'rtacha 11,4 trln so'mni tashkil etib, 3,5 trln so'mdan 18,3 trln so'mgacha keng diapazonda o'zgarib turgan. Bu investitsiyalarning hududiy iqtisodiy rivojlanish va aholi daromadlariga ta'sirchan omil ekanidan dalolat beradi.

Sog'liq infratuzilmasi ko'rsatkichi (10 ming aholiga shifokorlar soni) o'rtacha 16,6ni tashkil etgan bo'lib, eng past qiymat 15,8, eng yuqori qiymat 18,2 bo'lgan. Bu esa sog'liq infratuzilmasining ma'lum darajada yaxshilanayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, aholi daromadlarining hududiy tafovutlari asosan o'rtacha ish haqi va investitsiyalar hajmi bilan kuchli bog'liq. Bandlik darajasi nisbatan barqaror ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, sog'liq infratuzilmasi esa daromadlarni oshirishda qo'shimcha ijtimoiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Omillararo korrelyatsion tahlil 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Omillar korrelyatsion matritsasi

Variables	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)
(1) aholi_daromadi	1.000				
(2) ish_haqi	0.995	1.000			
(3) bandlik_d	0.361	0.329	1.000		
(4) investitsiya_hajmi	0.918	0.916	0.202		1.000
(5) sogliq_inf_d	0.585	0.576	0.192	0.492	1.000

Manba: "Stata/MP 17.0" dasturida hisoblangan.

Korrelyatsiya natijalaridan ma'lum bo'lishicha, aholi daromadiga va ish haqi o'rtasida juda yuqori korrelyatsiya mavjud (0.9954). Shuningdek, aholi daromadi bilan investitsiyalar hajmi o'rtasida ham 0.9181 koeffitsient ko'rsatilgan, bu esa o'zaro bog'liqlikni yaqqol ifodalaydi. Bunday yuqori korrelyatsiya ko'rsatkichlari multikollinearlik muammosiga ishora qiladi. Bu muammo regressiya modelining aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yuqori korrelyatsiyaga ega o'zgaruvchilar (masalan, ish haqi va investitsiyalar hajmi) modelda multikollinearlikni keltirib chiqarishi mumkin. Regressiya modelimiz quyidagicha natijalarni ko'rsatdi.

4-jadval

Regressiya modeli tahlili

Source	SS	df	MS		Number of obs	8
Model	119056277	4	29764069		F(4, 3)	105.58
Residual	845718.175	3	281906.1		Prob > F	0.0015
Total	119901995	7	17128856		R-squared	0.9929
					Adj R-squared	0.9835
					Root MSE	530.95

Variable	Coefficient	Std. err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]	
ish_haqi	0.004141	0.000635	6.52	0.007	0.002119	0.006163
bandlik_d	98.5349	116.5439	0.85	0.46	-272.36	469.4295
investitsiya_hajmi	0.061207	0.110806	0.55	0.619	-0.29143	0.41384
sogliq_inf_d	95.03463	270.9412	0.35	0.749	-767.221	957.2905
_cons	-8693.74	11372.48	-0.76	0.5	-44886.1	27498.57

Manba: STATA 17 MP dasturida hisoblangan.

Olib borilgan ekonometrik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, aholi daromadlariga ta'sir etuvchi omillar orasida ish haqi ko'rsatkichi asosiy determinant sifatida ajralib chiqmoqda. Model natijalariga ko'ra, ish haqining oshishi aholi daromadlarining sezilarli darajada ko'tarilishiga olib keladi. Ushbu natija p ($p < 0.01$)ning 1% lik qiymatida statistik ahamiyatga ega bo'lib, iqtisodiy jihatdan ham ahamiyatli mos keladi.

Qolgan omillar – ya’ni bandlik darajasi, investitsiya hajmi va sog’liq infratuzilmasi – ijobiy yo’nalishda ta’sir ko’rsatgan bo’lsa-da, statistik jihatdan ahamiyatli emasligi kuzatildi. Bu holat asosan mustaqil o’zgaruvchilar o’rtasida yuqori darajadagi multikollinearlik mavjudligi bilan izohlanadi.

Modelning umumiy ahamiyati yuqori ($F = 105.58$; $\text{Prob} > F = 0.0015$), shuningdek, $R^2 = 0.9929$ ko’rsatkichi model aholi daromadlaridagi o’zgarishlarning 99 foizga yaqini kiritilgan iqtisodiy omillar tomonidan izohlanishini ko’rsatmoqda. Bu esa tanlangan o’zgaruvchilarning aholi daromadlarini tushuntirishda konseptual jihatdan to’g’ri ekanligini anglatadi.

Natijada, tadqiqotdan kelib chiqadigan asosiy xulosa shundan iboratki, aholi daromadlarining hududiy tafovutlarini kamaytirishda ish haqi dinamikasini barqaror oshirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bandlik darajasi, investitsiya hajmi va sog’liq infratuzilmasi kabi omillarni yanada chuqurroq tahlil qilish uchun kengroq vaqt qatorlari va hududlar kesimida qo’shimcha ma’lumotlar jalb etish maqsadga muvofiqdir. Omillar o’rtasidagi kuchli bog’lanish ya’ni multikollinearlikni tekshirish uchun VIF (Variance Inflation Factor) testidan foydalanamiz. Bu test orqali biz multikollinearlikka asosan qaysi omil tushayotganini aniqlab beradi.

5-jadval

Multikollinearlikni tekshirish testi (VIF) natijasi

Variable	VIF	1/VIF
ish_haqi	8.19	0.122115
investitsiya_hajmi	6.79	0.147191
sogliq_inf_d	1.52	0.659857
bandlik_d	1.21	0.828879

Manba: STATA 17 MP dasturida hisoblangan.

VIF tahlili natijalariga ko’ra, ish haqi ($VIF = 8.19$) va investitsiya hajmi ($VIF = 6.79$) yuqori darajadagi qiymatlarga ega bo’lib, ularning o’rtasida kuchli multikollinearlik mavjudligi aniqlanadi. Bu esa regressiya modelida mazkur omillarning bir-birini takrorlash xavfini oshirib, koeffitsientlarning barqarorligi va statistik ahamiyatini kamaytirishi mumkin. Shu bilan birga, bandlik darajasi ($VIF = 1.21$) va sog’liq infratuzilmasi ($VIF = 1.52$) past ko’rsatkichlarga ega bo’lib, ularda multikollinearlik muammosi kuzatilmaydi. Biroq, ish haqi va investitsiya hajmi o’rtasidagi yuqori darajadagi o’zaro bog’liqlik regressiya koeffitsientlarining beqaror bo’lishiga va ularning statistik ahamiyatini pasayishiga olib kelishi mumkin.

6-jadval

Regressiya modeli tahlili

aholi_daromadi	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf. Interval]		Sig
23andlike_d	367.653	367.549	1.00	.054	-652.825	1388.132	*
investitsiya_hajmi	.708	.166	4.27	.013	.247	1.169	**
sogliq_inf_d	703.093	857.869	0.82	.045	-1678.733	3084.918	**
Constant	-41229.159	34461.784	-1.20	.022	-136910.41	54452.094	**
Mean dependent var	12103.750		SD dependent var		4138.702		
R-squared	0.893		Number of obs		8		
F-test	11.132		Prob > F		0.021		
Akaike crit. (AIC)	145.003		Bayesian crit. (BIC)		145.320		

*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$

Manba: STATA 17 MP dasturida hisoblangan.

Umumiy hisobda o'rtacha VIF 4.43 ni tashkil etadi, bu me'yoriy chegaradan past bo'lsa-da, ayniqsa ish haqi va investitsiya hajmi o'zgaruvchilaridagi yuqori bog'liqlikka alohida e'tibor qaratish lozim. Shuningdek, bu muammoni bartaraf etish yo'llaridan biri kuchli korrelyatsiyaga ega bo'lgan mustaqil o'zgaruvchilardan birini omillar tahlilidan chiqarib tashlash (Gujarati va Porter, 2009) tavsiya etilgan.

6-jadvalda tavsiya etilgan usulni inobatga olgan holda biz tahlilda kuchli kollinearlikka ega bo'lgan ish haqi mustaqil o'zgaruvchisini omillar tahlilidan chiqarib tashlashimiz natijasida, regressiya modelimizdagi boshqa mustaqil o'zgaruvchilarimiz p ning 5 % ($p>0,05$), 10 % ($p>0,1$) qiymatlarida statistik ahamiyatga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin

Xulosa va takliflar.

Aholi daromadlarini oshirish va hududiy tafovutlarni kamaytirishda ish haqi siyosatini barqaror va uzluksiz shakllantirish asosiy strategik chora sifatida namoyon bo'ladi, shu bilan birga investitsiyalarni rivojlantirish va sog'liq infratuzilmasini mustahkamlash qo'shimcha ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy tengsizlik muammolarini bir necha usullar bilan hal qilish tavsiya qilinadi. Xususan:

Ish haqi siyosatini barqarorlashtirish

- Hududlar bo'yicha ish haqi darajasini uzluksiz oshirish mexanizmini joriy etish.
- Minimal ish haqi me'yorlarini real daromad va inflyatsiya darajasi bilan moslashtirish orqali daromad barqarorligini ta'minlash.

Investitsiyalarni rivojlantirish va diversifikatsiyalash

- Hududiy iqtisodiy loyihalarni moliyalashtirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish.
- Investitsiya resurslarini sanoat, xizmat ko'rsatish va ijtimoiy sohalar o'rtasida teng taqsimlash.

Sog'liq infratuzilmasini mustahkamlash

- Hududlarda shifokorlar sonini oshirish va tibbiyot muassasalarini zamonaviylashtirish.
- Sog'liq sohasiga qaratilgan sarmoyalar orqali aholi farovonligi va mehnat unumdorligini oshirish.

Mehnat resurslarini samarali boshqarish

- Bandlik darajasini barqaror saqlash va ish o'rinlarini sifat jihatdan yaxshilash.
- Malakali ishchi kuchini tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarini rivojlantirish.

Adabiyotlar /Литература/References:

Adkins, L. C., & Hill, R. C. (2019). *Principles of Econometrics (4th ed.)*. Oklahoma State University & Louisiana State University.

Ayyagari, M., Beck, T., & Demirguc-Kunt, A. (2011). *Small vs. young firms across the world: Contribution to employment, job creation, and growth*. World Bank Policy Research Working Paper, No. 5631.

Beck, T., & Demirguc-Kunt, A. (2006). *Small and medium-size enterprises: Access to finance as a growth constraint*. *Journal of Banking & Finance*, 30(11), 2931–2943.

Blanchard, O., & Johnson, D. R. (2012). *Macroeconomics (6th ed.)*. Boston: Pearson.

Ergashev, D. A. (2024). *Investitsiya bozori va uning infratuzilmasi: Milliy investitsion resurslar va pul-kredit siyosati*. Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti nashri.

Gujarati, D. N., & Porter, D. C. (2009). *Basic Econometrics (5th ed.)*. New York: McGraw-Hill.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligi. (2024). *Dinamik makroiqtisodiyot (Darslik)*. Toshkent: Toshkent davlat texnika universiteti.

Saidova, G. S., Muxitdinov, A. I., & Karimov, I. (2025). Banklarining kredit va investitsiya siyosatiga bevosita bog'liqligi. *Yangi O'zbekiston Iqtisodiyoti*, 3.

Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi. (2024). *Ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha yil yakunlari. Surxondaryo: Surxondaryo Viloyat Statistika Boshqarmasi.*

To'rayev, N. B. (2022). *Iqtisodiy infratuzilmaga investitsiyalar va ta'lim tizimi. Toshkent moliya instituti ilmiy axborotnomasi*, 1.

United Nations Development Programme. (2024). *Uzbekistan Pilot Multidimensional Poverty Index Report 2023*. New York: UNDP. Retrieved from <https://www.undp.org>

Wooldridge, J. M. (2016). *Introductory Econometrics: A Modern Approach* (6th ed.). Boston: Cengage Learning.

World Bank. (2022). *World Development Indicators*. Washington, DC: World Bank.

World Bank. (2024). *Uzbekistan Overview: Development news, research, data*. Retrieved from <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/overview>

World Health Organization. (2023). *Transforming the health system in Uzbekistan: Two-year implementation review*. Geneva: WHO. Retrieved from <https://iris.who.int>